



**YOSHLAR TARBIVASIDA MILLIY G'OYA VA MAFKURA**

**Samatov Xurshid Ulmasjonovich**

Ilmiy maslahatchi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali f.f.d. dotsent.

**Sa'dullayev Mansurbek**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali talabasi.

E-pochta: mansurbeksadullayev256@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19437823>

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasida milliy g'oya va mafkuraning ahamiyati tahlil qilinadi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining mafkuraviy tarbiya jarayonidagi o'rni, axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlar sharoitida yoshlarning ongini himoya qilish masalalari yoritiladi. Shuningdek, milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash yo'llari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** milliy g'oya, mafkura, yoshlar, axborot, targ'ibot, mafkuraviy immunitet, OAV

**Annotation**

This article analyzes the role of national ideology in the upbringing of youth. It highlights the influence of mass media, ideological threats, and the importance of forming ideological immunity in modern society.

**Keywords:** national ideology, youth, media, propaganda, information security

**Аннотация** В статье рассматривается роль национальной идеи и идеологии в воспитании молодежи, а также влияние средств массовой информации и информационных угроз.

**Ключевые слова:** идеология, молодежь, СМИ, информация, воспитание

Bugungi globallashuv davrida yoshlar tarbiyasida milliy g'oya va mafkuraning o'rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, axborot oqimi kuchaygan hozirgi sharoitda yoshlar ongini turli zararli g'oyalardan himoya qilish muhim vazifaga aylangan. Yosh avlodni ma'naviy barkamol, mustaqil fikrleydigan shaxs sifatida tarbiyalashda milliy g'oya muhim omil hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi — yoshlar tarbiyasida milliy g'oya va mafkuraning ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

**Asosiy qism**

**Totalitar tizim va mafkura ta'siri**





Tarixdan ma'lumki, totalitar tuzum davrida ommaviy axborot vositalari faqat yagona mafkurani targ'ib qilish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Bu davrda fikrlar xilma-xilligi inkor etilib, jamiyatda "yakka fikrlash" hukmron bo'lgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Chunki muammolar yashirilgan, haqiqat to'liq ochib berilmagan.

### **Ommaviy axborot vositalari va mafkuraviy tarbiya**

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat axborot tarqatadi, balki jamoatchilik fikrini shakllantiradi.

OAV faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanishi zarur: haqqoniylik, mustaqillik. Plyuralizm (fikrlar xilma-xilligi) Hayotiylik — zamonaviy OAV faoliyatining asosiy talabi hisoblanadi. Ya'ni, faqat yutuqlarni emas, balki muammolarni ham ochiq ko'rsatish muhimdir.

#### **Milliy g'oya va yoshlar ongining shakllanishi**

Milliy g'oya yoshlar ongini shakllantirishda muhim ideologik vosita hisoblanadi. U jamiyatning asosiy qadriyatlarini yosh avlodga yetkazadi va ularni yagona maqsad sari birlashtiradi.

Milliy g'oya quyidagi vazifalarni bajaradi:

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi;
- milliy qadriyatlarga hurmat uyg'otadi;
- yot mafkuralarga qarshi immunitet hosil qiladi.

#### **Globalashuv va mafkuraviy tahdidlar**

Bugungi kunda globalashuv jarayonida yoshlar turli axborot oqimlari ta'sirida qolmoqda. Bu esa mafkuraviy xavflarni keltirib chiqaradi.

Shu sababli: yoshlar ongida mustaqil fikrlashni rivojlantirish; tanqidiy tafakkurni shakllantirish, milliy qadriyatlarga sodiqlikni oshirish zarur hisoblanadi.

#### **Milliy mafkura va ma'naviy immunitet**

Milliy mafkura yoshlar uchun "himoya qalqoni" vazifasini bajaradi. U insonni: zararli g'oyalardan, ekstremistik qarashlardan, ma'naviy tanazzuldan asraydi. Shu jihatdan milliy g'oya nafaqat siyosiy, balki axloqiy ahamiyatga ham ega.

### **Axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlar**

Hozirgi davrda axborot urushlari kuchayib bormoqda. Axborot endi oddiy vosita emas, balki kuchli qurolga aylangan. Tahlillarga ko'ra, axborot orqali inson ongiga ta'sir o'tkazish mumkin. Bu esa yoshlarni noto'g'ri yo'lga boshlashi ehtimolini oshiradi. Shu sababli yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish





zarur. Bu esa ularni turli zararli g'oyalarga qarshi mustahkam qiladi. Milliy g'oya va yoshlar tarbiyasi

Milliy g'oya yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. U yoshlarni: Vatanga sadoqatli Mustaqil fikrlaydigan

Ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantiradi. Milliy g'oya asosida tarbiya topgan yoshlar jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchiga aylanadi. Aksil targ'ibot va g'oyaviy kurash Zamonaviy davrda g'oyaviy kurash muhim ahamiyat kasb etadi. "G'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish" tamoyili asosida aksil targ'ibot olib borilishi zarur. Bu jarayonda quyidagilar muhim: tezkorlik dalillilik tushunarliklik. Aksil targ'ibot yoshlarni begona va zararli g'oyalardan himoya qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Zamonaviy ahamiyati Bugungi kunda yoshlar turli axborot oqimi ichida yashamoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli mafkuraviy ta'sirlar kuchaymoqda. Shu sababli milliy g'oya asosida tarbiya berish: ma'naviy barqarorlikni ta'minlaydi yoshlarni zararli g'oyalardan himoya qiladi jamiyat rivojiga xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tarbiyasida milliy g'oya va mafkura muhim o'rin egallaydi. U yoshlarni ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan va vatanparvar shaxs sifatida shakllantiradi. Axborot xurujlari kuchaygan hozirgi davrda mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu bois milliy g'oya asosida tarbiya berish jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023. - 25-40-betlar.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 80-150-betlar.
3. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Toshkent, 2010. - 40-100-betlar.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 15-60-betlar.
5. Abdurauf Fitrat. Najot yo'li. - Toshkent: Ma'naviyat, 2001. - 60-95-betlar.
6. Imom Buxoriy. Al-adab al-mufrad. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - 20-85-betlar.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. - Toshkent: Hilol-Nashr, 2020. - 110-150-betlar.





# THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES

International scientific-online conference



8. Ommaviy axborot vositalari va jamiyat (ilmiy maqolalar to'plami). - Toshkent, 2019.

